

## HUDUDIIY MARKAZLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNI MUVOFIQLASHTIRISH

(Jizzax viloyati misolida)

**Anorboyev Bunyod Shavkat o'g'li,**

*Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi*

*Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'lim boshlig'i.*

**Annotatsiya:** Maqolada Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, maktabgacha ta'lim sifati, bugungi maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” kabi tadbirlar tashkil etish va bu tadbirlar orqali pedagoglarning hamkorligini yaratish, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, Jizzax viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari haqida ma'lumot va boshqalar haqida batafsil fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Islohotlar, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”, ilmiy tadqiqotlar.

Yangi O'zbekiston Davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri uzluksiz ta'limning barcha jabhalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida ham zamonga mos ta'lim sifati ta'minlashdir. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi ham bundan mustasno emas.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sifati Davlat, jamiyat, shaxs va ta'lim tizimi manfaatlarini inobatga olib ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim sifati – bugungi kunda dolzarb bo'lgan, maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'zida real ta'lim natijalarini aks ettiruvchi, qabul qilingan me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy prognozlariga muvofiqlik darajasini aks ettiradi. Maktabgacha ta'lim sifati Davlat siyosatida belgilangan maqsadga muvofiqlik darajasi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga muvofiq ishlab chiqilgan maqsadlar, ta'lim jarayoni bilan bog'liq ta'lim xizmatlari (ota-onalar) iste'molchilarining manfaatlari, uning sharoitlari va natijalari, shuningdek, butun maktabgacha ta'lim tizimi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar bilan baholanishi mumkin. Bugungi maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitlarida maktabgacha ta'lim sifati oshirish muammosi juda dolzarb bo'lib, tizimning turli darajalarida boshqaruvga oid qarorlarini qabul qilishni taqazo etadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim turli yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bilan birga, ularni sog'lom, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Jumladan, 2024-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-sonli qarori va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 210-sonli buyrug'i asosida Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazida “Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish” bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'limning asosiy vazifalari maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish hamda maktabda o'qishga tayyorlash sifati yaxshilash orqali bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, pedagoglarning iste'dodlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan seminarlar tashkil etish, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” kabi tadbirlar tashkil etish va bu tadbirlar orqali pedagoglarning hamkorligini yaratish.

“Metodik mahorat kuni”ning mohiyati va maqsadi. Metodik mahorat kuni – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning metodik bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus kun bo'lib, ushbu tadbirlar davomida:



- Pedagoglar ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashadilar;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhokama qilinadi;
- Ilmiy-amaliy seminarlar va treninglar tashkil etiladi.

Metodik mahorat kuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu kun davomida pedagoglar yangi metodikalardan foydalanish bo'yicha treninglardan o'tadilar hamda ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilishni o'rganadilar.

“Metodik mahorat soati”ning roli va ahamiyati. Metodik mahorat soatlari esa pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi tizimli mashg'ulotlardan iborat bo'lib, bu jarayon quyidagi maqsadlarga qaratilgan.

- Pedagoglar tomonidan ishlatiladigan ta'lim metodikalarining samaradorligini tahlil qilish;
- O'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- O'quvchilar bilan ishlashda interfaol yondashuvlardan foydalanish;
- Pedagogik muammolarni hal etish bo'yicha maslahatlar berish.

Metodik mahorat soatlarining samarali tashkil etilishi pedagoglarning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, o'quvchilarga sifatli ta'lim berish imkoniyatini oshiradi.

Ayni paytda Jizzax viloyatida jami 242 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lib, ulardagi 14 ta tayanch MTTda 14 nafar trener(mentorlar) faoliyat olib bormoqda. Tayanch Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” har oyning birinchi va uchinchi haftasining seshanba kunida o'tkaziladi. “Metodik mahorat soati” esa doimiy Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha guruhlarida davom ettiriladi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatidagi jami 1724 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasi 2024-yilda 78 foizga yetkazildi. Joriy yil yakunigacha bu ko'rsatkich 83 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2025-yil yanvar oyidan boshlab MTT tarbiyachilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Shu vaqtga qadar jami 100 nafar MTT tarbiyachilari malaka oshirish kurslariga jalb etilgan bo'lib, ulardan 98 nafari kursni muvaffaqiyatli yakunlab sertifikatga ega bo'ldilar. Dars jarayonlari tarbiyachilarga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda olib borilib, turli xil interfaol metodlar qo'llanildi. Dars jarayonida olingan yangiliklar, interfaol metodlardan tarbiyachilar joylarga borganda mashg'ulotlar davomida o'z o'rnida foydalanib kelmoqdalar.

Pezidentimizning maktabgacha ta'lim sohasida olib borayotgan oqilona siyosatlari mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning ijobiy natijalarini ko'rsatadi va islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Kelajakda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va bolalarni sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirishimiz lozim.